



KAYKAVUSNING “QOBUSNOMA” ASARINING AHLOQIY SIFATLARI TAVSIFI

Shermo'minova Jasmina Shavkatovna

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi

fakulteti 2-bosqich talabasi

jshermominova@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada Kaykovusning "Qobusnomा" asarining badiiy tahlili yoritib beriladi hamda ilmiy qarashlar bilan tahlil qilinadi. Shuningdek, "Qobusnomа" asaridagi hikoyalarning g'oyalari talqini yoritib beriladi. Hikoyatlarda ilgari surilgan illatlar va e'tirof etilgan fazilatlar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Qobusnomа, Kaykavus, badiiy tahlil, didaktik asar, ahloqiy asar.

Аннотация: В статье дается художественный анализ «Кошмара» Кайковуса и анализируется с научной точки зрения. Также дается интерпретация идей рассказов в «Кошмаре». Выделяются пороки и добродетели, представленные в рассказах.

Ключевые слова: Кошмар, Кайковус, художественный анализ, дидактическая работа, моральная работа.

Annotation: This article provides an artistic analysis of Kaykovus's "Nightmare" and analyzes it with scientific views. It also provides an interpretation of the ideas of the stories in "Nightmare". The vices and virtues presented in the stories are highlighted.

Keywords: Nightmare, Kaykovus, artistic analysis, didactic work, moral work.

"Qobusnomа" — bu asrlar osha o'zining axloqiy-ma'naviy qadriyatları, hayotiy tajribalarga boy pand-nasihatları bilan yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etib kelayotgan, Sharq adabiyotining yuksak namunalaridan biridir. Asar muallifi Keykovus (Keykavus) bo'lib, u bu durdona pandnoma asarni o'z o'g'li Gilongshohga hayot yo'lida adashmasligi, donolik bilan yashashi, jamiyatda o'z o'mini topa olishi uchun yozgan. "Qobusnomа"da bayon etilgan maslahatlardan nafaqat o'g'il farzand, balki har qanday yoshdagи inson hayoti uchun ibratli jihatlar topishi mumkin. Asarda axloq, odob, do'stlik, ilm, kasb, siyosat, insoniy munosabatlar kabi ko'plab mavzular yoritilib, o'quvchini teran fikrashga chorlaydi. Dastlabki 4 bobi Haqni tanimoq, Payg'ambarlarning xilqati (yaratilishi), Alloh ne'matiga shukur qilmoq haqida bo'lib, qolgan 40 bobi ota-onani hurmatlash, ilm va san'atni egallash, harb, savdo, dehqonchilik ishlari va hunarni o'rganish, odob-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat va juvonmardlik kabi ko'plab masalalarni o'z ichiga oladi. Asarda hunar va ilm jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari deb qaraladi. Odamlar 3 guruhga bo'linib, ularning



jamiyatda tutgan o'mi belgilanadi; odamlarning fazilatlari ham 3 guruhga bo'linadi: aqlilik, haqgo'ylik, juvonmardlik.

Kaykovus dunyodagi mavjudotni bir-biri bilan bog'liq va murosasiz deb talqin qiladi. U kishi ruhiyatini ham 2 guruhga bo'ladi: jismoniy sezgini modda, ruhiy hissiyotni esa "jon" bilan bog'laydi va bularning birini moddiy, ikkinchisini ruhiy hayot mahsuli deb ko'rsatadi. Uning fikricha, dunyodagi hamma narsalar yaralishi va mohiyat e'tibori bilan ilohiydir. Zero, inson Xudoni tanimoq uchun avvalambor o'zini bilmog'i, ya'ni "sozga qarab sozandani tanimog'i lozim", deydi. "Qobusnoma" asari Unsurul moliy Kaykovus tomonidan yozilgan. Asarni o'g'li Gilon shohga bag'ishlab yozadi va bobosining nomi bilan "Qobusnoma" deb ataydi, asar 1083-yil Jurjonda yozilgan bo'lib 44 bobdan iborat, bu asar nafaqat podshohlik mansabi va masalalarida bilim va madaniy, axloqiy ishlarda ham namuna bo'la olgan, "Qobusnoma"da nasihat ruhidagi kichik-kichik hikoyachilar keltirilgan. So'zni bilib gapirish bobida shunday deyilgan Horun ar-alashib bir tush ko'radi kim og'zidan barcha tishlari to'kilib tushibdi, bir munajjimni chaqirib so'raganda: "Sendan boshqa barcha qarindoshlarining vafot etadi,"-deydi shoh yuz dara olishni buyuradi, yana bir munajjimni chaqirganda: "U sen hamma odohinglardanda uzoq umr ko'rasan,"- deb tushunib tabr qiladi, shoh shunda o'ylaydiki ikki gapning mazmuni bir aytish yo'li boshqacha, ikkinchi munajjimning zukkoligi uchun yuz tilla oltin beradi, xulosa shuki, har bir gapni to'g'ri tushuntirish va vaziyatdan kelib chiqib gapirish kerak. Yaxshi insonlar bilan oshno bo'lish qismida shunday deyilgan: bir kuni Aflatun o'tirgan edi yoniga shahar ulug'laridan biri kelib ey hakam seni bugun falon odamni ko'rdim haqqingga ko'p duolar qildi maqtadi deydi, Aflatunning hayron bo'ldi shunday deydi:"Nega meni johil kishi maqtadi va ismni maqulladi, johilga monand ish qilibmanmikan u meni tavsiya qiladi demak men johillarga oshno bo'libman",- deb g'amgin bo'ladi, xulosa shuki, johillarga emas yaxshilarga marg'ub bo'lish kerak, yana shunday hikoyat keltiriladiki, Muhammad Zakrioyi o'tirganda bir devona hech kimga qaramay faqat unga qarab kuladi, Muhammad Zakrioyi hech yemaydigan ovqatidan o'sha voqeadan keyin yeidi shogirdlari sababini so'raganda devona unga hech bunday qilmaganini kuldimi demak uni ham devona deb bilganini aytadi o'zidan o'zi ranjiydi, ko'p bilsang ham o'zingni bilag'on tutma va keyin uyalinb qolmaysan qismidan shunday hikoyat keltirilgan: bir donishmand bor edi va huddi shunday donishmand alaviy yigit bor edi bir kuni alaviy yigit o'zini katta olib donishmandni kofir deydi bundan jahli chiqqan donishmand yigitni xaromzoda deb ataydi oilaviy yigit bu gapni eshitib shohga shikoyat qiladi shohning g'azabi kelib donishmandni yoniga chaqirib oladi u shunday deb javob qaytaradi men uning ota-onasini nigohda nigohlagan edim kofirning nikoh o'tmaydi shunday ekan u xaromzoda deb aytadi yigit gapirgan gapidan pushaymon bo'ladi, xulosa shuki, inson o'rnini bilib va gapning ma'nosiga e'tibor berib gapirsa, hijolat bo'lmaydi. Keyingi bob omonatga xiyonat qilmaslikda shunday hikoyat keltirilgan bir kishi hammomga kechqurun yo'l oglani uchun qo'shnisini hamroh qilmoqchi bo'libdi, qo'shnisi hammom tarafga borishni, lekin boshqa ish qilishini aytadi, kishi rozi bo'ladi va yo'lida ikkalasi ketayotganda qo'shnisi o'z ishi yuzasidan boshqa yo'lga burilib ketadi, o'sha





kishining izidan o'g'ir tushadi, hammomga ketayotgan kishi o'g'rini qo'shnisi deb o'ylaydi va hammomga kirayotganda ming tillab pulni o'g'riga berib chiqquncha kutib turishini aytadi, u kishi chiqquncha o'g'ri kutib turadi hammomdan chiqib qarasa, begona kishi turgandi hayron bo'lib kimligini so'raydi u o'g'riligini aytadi nega unda olib ketmading pulni deganda menga omonat qilding xiyonat qilolmasdim deb javob beradi., xulosa shuki, inson qanday va vaziyatda bo'lmasin omonatga xiyonat qilmasligi kerak va yigitlik zikrida bobida shunday hikoyat keltirilgan bir yosh katta bo'lgan valizod yo'lda ketayotgan edi yonidan navqiron yosh yigit borayotganda ustidan maza qilib yoyni qanchaga oldingiz deganda sabr qilsang, senga ham tekinga beradi deb javob beradi, xulosa shuki, qarilik hammaning boshiga tushadi, buni ustidan kulish kerak emas. Mehmon olmoq va mehmon bo'lmoq zikrida bobida shunday hikoyat keltirilgan xalifa bir gunohkorni oldiga keltiradi va tila tilaklarining deydi shunda u bir kosa suv so'raydi ichib bolgach shohga qarata men sening mehmoning bo'ldim mehmonni o'ldirish vojib bo'lsa o'ldir, lekin qilgan ishi mdan uzur so'rayman deydi, shoh mehmon bo'lganini ma'qullaydi va o'ldirmaydi, xulosa shuki, kim bo'lishidan qat'iy nazar mehmon hurmatini joyga qo'yish kerak.

Xulosa qilib aytganda, "Qobusnoma" nafaqat o'z davrining, balki bugungi kunning ham bebahvo ma'naviy-ma'rifiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Undagi pand-nasihatlar, ibratlari hikmatlar yosh avlodni komil inson bo'lib yetishishiga yo'l ko'rsatadi. Asarning dolzarbli shundaki, u hayotiy tajriba asosida yozilgan bo'lib, har bir o'quvchiga chuqur o'y va saboq beradi. Bugungi kunda ham bu asar yoshlarni odobli, bilimli, dono va halol bo'lishga undaydigan kuchli tarbiyaviy vosita bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Keykovus. Qobusnoma. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990.
2. G'aniyeva N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.
3. Rasulov B. Sharq adabiy merosi va ma'naviyat. — Toshkent: Fan, 2001. 4. Sharipova M. Pandnoma janri va uning taraqqiyoti. — Toshkent: O'qituvchi, 1986.
5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Internet manbalari:
<https://ziyouz.uz>
<https://kitobxon.com>

